**2018 yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi**

**RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4216.0** mlrd.so'mni, o'sish **9.7 %**ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **103.3%** ni tashkil etdi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **-13.7%** ni tashkil etdi
- Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni **- 1554** birlikni tashkil etadi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalari tomonidan 4216.0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109.7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8.7% ga, tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 18.4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalashning 7.3 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 76.5 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



### *Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.*

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 165.9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3.9 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iycha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,5 marta ga, gaz kondensati - 25,3 % ga va tabiiy gaz – 16.4 % ga oshganligini  kuzatish mumkin.

**_Yanvar - iyun oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish_**

| Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari | 2018 yilda ishlab chiqarilgan | 2017 yilda ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| Ohoktosh, t | 82868 | 55121,3 | 150,3 |
| Gaz kondensati, ming t. | 94,09 | 75,12 | 125,3 |
| Tabiiy gaz, mln.kub.m | 320,52 | 2756,48 | 116,4 |

### *Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).*

2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3739,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 88.7 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan kislorod ishlab chiqarish 2.4 martaga. tozalangan guruch – 84.1% ga, aroq -10.6% ga, paxtadan iyigirilgan ip – 10.7% ga, polietilen – 7.4% ga, polipropilen -12.6% ga oshganligini va paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan), yumshoq bug'doy uni, karbonat dinatriya ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

| Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2018 yilda ishlab chiqarilgan | 2017 yilda ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| Paxta tolasi, t | 34986 | 37232 | 94,0 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), t | 7987.5 | 8690,3 | 91,9 |
| Yumshoq bug'doy uni, t | 38742,5 | 40035,3 | 96,8 |
| Aroq, m.l. 100% spirt | 1953.6 | 1765,9 | 110,6 |
| Tozalanqan guruch, t | 2738.1 | 1487.4 | 184.1 |
| Paxtadan iygirilgan ip, t | 2074,1 | 1873 | 110,7 |
| Kislorod, ming.m3 | 6,2 | 2,6 | 236,1 |
| Karbonat dinatriya, ming.t. | 93,7 | 99,3 | 94,3 |
| Polietilen, t. | 196200,46 | 182631,54 | 107,4 |
| Polipropilen, t. | 50767,15 | 45072,95 | 112,6 |

***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 246.9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5.9 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida issiqlik energiyasini ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,4 %, ga , elektr energiyani ishlab chiqarish 2,0 %, ga kamayishi kuzatildi**.**

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 63,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5% ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni - 99,1%, % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning - 24,1% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning - 58,7% ga oshganligi kuzatildi.

***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 549,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,3%, ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 13% ni tashkil etdi.

***2018 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish***




2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 30,1% dan 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 31,9% ga oshishi kuzatilmoqda.

***Yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, %***




***Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi***

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko’p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 71,5% dan ulushini), Taxiatosh (5,1%), Xo’jayli (3,4%), Amudaryo (3,3%), Mo’ynoq (3,1%) tumanlari hissasiga to’g’ri kelmoqda.

***2018 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o’sish sur'atlari***



Shu bilan birga eng kam ulushi Taxtako’pir (0.2 %), Shumanay (0.3 %), Nukus (0.4 %), Qorao’zak (0.8 %) va Chimboy (1.2 %) tumanlari hissasiga to’g’ri keladi.

Shuni ta’kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo’yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Mo’ymoq (2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 123.1 % ga), Amudaryo (118.4 % ga), Qorao’zak (112.5 % ga), Xo’jayli (110.1 % ga) va Qonliko’l (110.5 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o’sishi ta’minlandi.

***2018 yil yanvar-iyun oylarida respublikalar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Nukus shahrida (9657.9 ming so’m), Mo’ynoq (4297.7 ming so’m), Taxiatosh (2993.5 ming so’m) tumanlarida o’rtacha respublika darajasi ko’rsatkichidan (2281.5 ming so’m) ancha yuqoriligini ko’rsatmoqda.

***2018 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha aholi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari***




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Mo’ynoq (2017 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 121.9 % ga), Amudaryo (116.6 % ga) va Qorao’zak (111.7 % ga) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Ellikqal’a (99,7%) tumanida o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9.6 % ga oshishini ta'minladi, o’z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 13.7% tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Nukus (99.9 %), Taxtako’pir (99.98 %) va Qorao’zak (99.96 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (4.4 %), Taxiatosh (3.6 %), Mo’ynoq (5.7 %) va

***2018 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %***




***Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.***

Bugungi kunda respublikada 1554 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 402 ta korxona Nukus shahriga, 117 ta Amudaryo, 149 ta Beruniy, 42 ta Qonliko'l, 81 ta Qorao'zak, 27 ta Kegeyli, 96 ta Qo'ng'irot, 43 ta Mo'ynoq, 49 ta Nukus, 58 ta Taxiatosh, 188 ta To'rtko'l, 89 ta Xo'jayli, 48 ta Chimboy, 48 ta Shumanay va 98 ta korxona Ellikqal'a tumanlariga to'g'ri keladi.

***2018 yilning yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylastirish*.**

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiyallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z tasirini kurasatti, mazkur dastur doyirasida 2119.9 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib 222.0 mln. AQSH dollori mig'dorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

Mahalliylashtirilqan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 martaba oshishi kuzatildi.

***2018 yil 1 iyul holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik***




Joriy yilning yanvar-iyun oylarida respublikada 227 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo’lib, ulardan qariyib 71 % Nukus shahri, Amudaryo, Taxiatosh, Qo’ngirot, Qorao’zak va To’rtko’l,Beruniy tumanlariga to’g’ri keladi.

*Sanoat statistikasi bo’limi*

*Nashr uchun mas’ul:* *Gulmurzaeva T.*

*Aloqa telefoni:* *(0371) 230-82-09*